



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

Ismoilova Maftuna Kenjaboy qizi

Nukus pedagogika instituti Ellik qal'a
fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishining 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limga kirib kelayotgan yangi innovatsiyalar, ularni o'quvchilarga tatbiq etish yo'llari, innovatsion pedagogik metodlar haqida gap boradi. Eng asosiysi, maqola davomida kreativ fikrlash hamda tanqidiy fikrlashga o'rgatish texnikalari yoritilgan

Kalit so'zlar: interaktiv ta'lim, gibrid ta'lim, innovatsiya, kreativlik, tadqiqot.

Аннотация: В статье рассматриваются новые инновации, внедряемые в начальное образование, пути их внедрения в работу с учащимися, а также инновационные педагогические методы. Самое главное, что в статье рассматриваются методы обучения творческому мышлению и критическому мышлению.

Ключевые слова: интерактивное обучение, гибридное обучение, инновации, креативность, исследования.

Abstract: This article discusses new innovations entering primary education, ways to implement them with students, and innovative pedagogical methods. Most importantly, the article covers techniques for teaching creative thinking and critical thinking.

Keywords: interactive learning, hybrid learning, innovation, creativity, research.



Boshlang'ich ta'lim tizimi jamiyatning rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarga bilim berishdan tashqari, ularda ijtimoiy, psixologik va madaniy ko'nikmalarni shakllantirish hamda tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar joriy etish zarurati kundankunga ortib bormoqda. Innovatsiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirish, sifatini oshirish va yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Keling avval Innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida qisqacha so'z olib borsak. Bugungi kunda innovatsiyalar asosan texnologiyalar bilan bog'liq. Boshlang'ich ta'limda interaktiv ta'lim vositalaridan, raqamli resurslardan, o'quv dasturlaridan va internet tarmoqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, smart taxtalar, interaktiv ekranlar, ta'limga oid mobil ilovalar yordamida o'quvchilarni faol o'rganishga jalb qilish mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Individual yondashuv.

Innovatsion ta'limda har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olishga alohida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich ta'limda individual yondashuvni amalga oshirish orqali o'quvchilarni o'z vaqtida va mos shaklda rivojlantirish mumkin. Bunda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish darajasini tahlil qilish, turli sinovlar va baholash metodlarini joriy etish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning o'z qiziqishlari va istaklariga mos ravishda darslarni tashkil etish, turli shakllarda bilim berish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Innovatsiyalar faqatgina texnologiya va metodikalar bilan cheklanmaydi. O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish, ularga o'z fikrini erkin bildirish va tanqidiy fikrlashni o'rgatish ham muhimdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga o'z g'oyalarini ifoda etish imkoniyatini yaratish, ularni jamoaviy ishga jalb qilish, muammoni hal qilishda ijodiy yondashuvlarni rag'batlantirish talab etiladi.

Gibrid ta'lim modelining tatbiqi

Hozirgi kunda gibrid ta'lim - ya'ni an'anaviy va masofaviy ta'limni birlashtirish



modeli, boshlang'ich ta'limda keng qo'llanilmoqda. Gibrid ta'limning asosiy afzalligi shundaki, u o'quvchilarga vaqt va joy cheklovlaridan qat'i nazar ta'lim olish imkoniyatini beradi. Bu modelda o'quvchilar o'zining qiziqishlari va o'rganish tezligiga qarab materiallarni o'rganishi mumkin.

O'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga e'tibor

Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni joriy etishda o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham hisobga olish zarur. O'quvchilarni bir-biriga yordam berishga, o'zaro hurmat va hamkorlikka o'rgatish, stressni boshqarish, o'zini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish ta'lim jarayonini yanada samarali va muvozanatli qiladi.

Tadqiqot va tajriba orqali o'rganish

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklamaslik kerak. Ularni turli tadqiqotlar o'tkazishga, amaliy mashg'ulotlarda qatnashishga, hayotiy tajribalar orttirishga undash lozim. Innovatsion ta'limda o'quvchilarni o'z qo'llari bilan ilmiy ishlar qilishga rag'batlantirish va bilimni amaliyotga tadbiq etish eng muhim yo'nalishlardan biridir.

Innovatsion pedagogik metodlar

Pedagoglar uchun yangi yondashuvlar va metodlarni o'rganish ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, “o'rganish orqali o'rganish” metodologiyasi, guruhli va shaxsiy ishlashning innovatsion usullari, o'quvchilarning tashqi muhitga faol munosabatini shakllantirish ta'limda yangicha izlanishlarni qo'llash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda innovatsiyalarni amalga oshirish o'quvchilarning bilimlarini va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashga yordam beradi. Innovatsion metodlar, texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa kelajakda kuchli, ijodkor va mustahkam bilimli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babanskiy Y.Q. "Xozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari". Toshkent: O'qituvchi, 1990.
2. Ne'matova G. "Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o'quvchining mustaqil faoliyati" (Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). - Toshkent: RTM, 2001.
3. Roziqov O., Og'ayev S., Maxmudova M., Adizov B. "Didaktika.- Toshkent: Fan, 1997.
4. <https://cyberleninka.ru>